



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI  
*2023- yil*  
*yanvar-mart*



## SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra **4 137,9** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **19,7** ming kishiga yoki **0,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 519,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,7 %**), qishloq aholisi soni **2 618,7** ming kishi (**63,3 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**4137,9** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+20,9** ming kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar




**36,7%**

#### Qishloq



**63,3%**


### Aholining tabiiy harakati, ming kishi



Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar  
2023- yil yanvar-mart




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni  
2023- yil 1- aprel holatiga



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **33,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **260,3 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **70,7 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **241,3 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **78,9 ming kishini** tashkil etgan.

## Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73,7** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,3** yoshga, ayollar uchun esa **76,1** yoshga teng. Shahar joylari **75,4** yosh, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **72,0** yoshni tashkil etgan.

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- aprel holatiga



### Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1- aprel holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>4049,5</b>	<b>4137,9</b>	<b>102,2</b>
Samarqand sh.	564,4	575,8	102,0
Kattaqo'rg'on sh.	92,3	93,9	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	165,9	170,1	102,5
Bulung'ur	194,3	198,6	102,2
Jomboy	181,3	186,0	102,6
Ishtixon	265,6	271,3	102,1
Kattaqo'rg'on	283,4	289,1	102,0
Qo'shrabot	136,9	139,7	102,0
Narpay	220,0	224,1	101,9
Payariq	261,7	268,4	102,6
Pastdarg'om	369,0	376,6	102,1
Paxtachi	148,3	150,4	101,4
Samarqand	262,7	268,6	102,2
Nurobod	156,8	159,9	102,0
Urgut	535,3	548,5	102,5
Toyloq	211,6	216,9	102,5

### Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Samarqand viloyatida 2023- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **246,7** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,2** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **241,5** kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9390,0** kishi, Samarqand shahrida **4798,3** kishi, Toyloq tumanida **774,6** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobot tumani **32,9** kishi, Qo'shrabot tumani **64,7** kishi, Paxtachi tumani **109,0** kishini tashkil etgan.

### Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




### QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




### Tug'ilganlarning taqsimlanishi


#### Yanvar



#### Fevral



#### Mart



### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-mart, kishi

Hudud nomi	Soni	Koeffitsiyenti (%)
Urgut	3804	28,2%
Samarqand sh.	3343	23,6%
Pastdarg'om	2058	22,2%
Payariq	1918	29,1%
Ishtixon	1610	24,1%
Kattaqo'rg'on	1514	21,3%
Samarqand	1502	22,7%
Toyloq	1389	26,0%
Bulung'ur	1369	28,0%
Jomboy	1295	28,3%
Oqdaryo	1135	27,1%
Narpay	1039	18,8%
Qo'shrabot	944	27,5%
Paxtachi	904	24,4%
Nurobod	793	20,1%
Kattaqo'rg'on sh.	674	29,2%




2023- yil yanvar-mart oylarida **25,3** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **24,8** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **0,5** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilda **24,3** promilleni tashkil etgan).



### VAFOT ETGANLAR



### Vafot etganlarning taqsimlanishi



### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, kishi


Urgut	769	5,7 %
Samarqand sh.	724	5,1 %
Pastdarg'om	369	4,0 %
Ishtixon	287	4,3 %
Kattaqo'rg'on	280	3,9 %
Payariq	251	3,8 %
Samarqand	242	3,7 %
Qo'shrabot	209	6,1 %
Narpay	205	3,7 %
Paxtachi	183	4,9 %
Toyloq	180	3,4 %
Bulung'ur	173	3,5 %
Jomboy	164	3,6 %
Nurobod	157	4,0 %
Oqdaryo	144	3,4 %
Kattaqo'rg'on sh.	97	4,2 %

2023- yilning yanvar-mart oylarida **4,4** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan (2022- yilning yanvar-mart oylarida **4,5** promille bo'lgan).



### O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart, kishi



2023- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **50,0 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **6,2 %** i – o‘simtalardan, **14,0 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,1 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,1 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,7 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **20,9 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


### O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart



2023- yil yanvar-mart oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **22,1 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **23,7 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **54,2 %** ni tashkil etgan.

## QAYD ETILGAN NIKOHLAR




## Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, birlik


Urgut	1016	7,5 %
Samarqand sh.	611	4,3 %
Pastdarg'om	519	5,6 %
Kattaqo'rg'on	383	5,4 %
Ishtixon	368	5,5 %
Payariq	353	5,3 %
Toyloq	289	5,4 %
Bulung'ur	279	5,7 %
Jomboy	267	5,8 %
Samarqand	244	3,7 %
Narpay	226	4,1 %
Oqdaryo	208	5,0 %
Nurobod	201	5,1 %
Paxtachi	149	4,0 %
Qo'shrabot	104	3,0 %
Kattaqo'rg'on sh.	99	4,3 %

## Nikohlarning taqsimlanishi



### Yanvar



### Fevral




### Mart



2023- yilning yanvar-mart oylarida **5,3** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **1,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-mart oylarida **6,4** promille bo'lgan).

## NIKOHDAN AJRALISHLAR



## Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, birlik

Wiloyat	Soni	Koeffitsiyenti
Samarqand sh.	146	1,0 %
Urgut	130	1,0 %
Pastdarg'om	107	1,2 %
Narpay	89	1,6 %
Samarqand	89	1,3 %
Kattaqo'rg'on	73	1,0 %
Payariq	73	1,1 %
Jomboy	65	1,4 %
Toyloq	54	1,0 %
Bulung'ur	50	1,0 %
Paxtachi	49	1,3 %
Ishtixon	48	0,7 %
Nurobod	46	1,2 %
Oqdaryo	43	1,0 %
Qo'shrabot	43	1,3 %
Kattaqo'rg'on sh.	41	1,8 %

## Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

### Yanvar

#### Shahar

184



46,8%

#### Qishloq

209



53,2%

### Fevral

#### Shahar

157



43,2%

#### Qishloq

206



56,8%

### Mart

#### Shahar

168



43,1%

#### Qishloq

222




56,9%



2023- yil yanvar-mart oylarida **1,1** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-mart oylarida **1,3** promille bo'lgan).

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart



2023- yil yanvar-mart oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **64,1 %** i farzandsiz, **17,1 %** i bitta farzand bilan va **18,8 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

## Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2023- yilning yanvar-mart oylarida **1146** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan

## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 2 549 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 3 768 kishini, migratsiya saldosi minus 1 219 kishini tashkil etdi. (2022- yil yanvar-mart oylarida minus 1 595 kishini tashkil etgan).

### Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

*(kishi)*

	2022 - yil yanvar-mart			2023- yil yanvar-mart		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	2 444	4 039	-1 595	2 549	3 768	-1 219
Samarqand sh.	1 137	579	558	1 035	685	350
Kattaqo'rg'on sh.	106	200	-94	100	155	-55
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	105	153	-48	152	126	26
Bulung'ur	90	254	-164	102	191	-89
Jomboy	71	138	-67	110	101	9
Ishtixon	109	334	-225	74	247	-173
Kattaqo'rg'on	154	284	-130	133	252	-119
Qo'shrabot	70	269	-199	81	259	-178
Narpay	46	204	-158	58	216	-158
Payariq	63	408	-345	123	298	-175
Pastdarg'om	172	224	-52	148	220	-72
Paxtachi	12	285	-273	76	326	-250
Samarqand	161	153	8	184	179	5
Nurobod	35	164	-129	38	142	-104
Urgut	7	313	-306	55	298	-243
Toyloq	106	77	29	80	73	7

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

*Tel: 66-235-72-35*